

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**O'ZBEK ADABIYOTI II
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lism
Ta'lism sohasi:	110000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi:	60111400-O'zbek tili va adabiyoti

Chirchiq – 2023

Fan/modul kodi O'A208	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek adabiyoti II	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni adabiyotning tarixiy asoslari, tarixiy o'tmishda ijod qilgan shoir va yozuvchilarining ijod namunalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, tarixiy adabiyotning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.</p> <p>Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarga adabiyot tarixi fanining ahamiyati, o'zbek adabiyotining tarixiy asoslari va nazariy masalalariga oid bilim va tushunchalar berish, tarixiy adabiyotning mavzui, mazmun-mundarijasi, hozirgi kun bilan bog'liqligi va boshqa sohalar bilan munosabati, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish va natijada talabalarda o'zbek adabiyotining asoslari, og'zaki va yozma adabiyotning tarixiy shakllanish bosqichlari kabilarni bilish, o'z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o'rganganlarini amalda qo'llay olishga o'rgatishdir.</p>			
	<p>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p>			
	<p>1-mavzu. Pahlavon Mahmud hayoti va ijodi</p> <p>Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodiy merosi. Shoir ruboiylarining mavzu doirasi, timsollar tarkibi, g'oyaviy-falsafiy, badiiy xususiyatlari va mazmun-mohiyati.</p>			
	<p>2-mavzu. Rabg'uziy hayoti va ijodi.</p> <p>Rabg'uziy va uning "Qissasi Rabg'uziy" asari. Asarning mavzusi, mundarijasi. Asardagi qissa va hikoyatlar, ularning mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.</p>			
	<p>3-mavzu. Xorazmiy va Sayfi Saroyi hayoti va ijodi.</p> <p>Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma" asari. Asar turkiy adabiyotda "noma" janrinining ilk namunasi ekanligi. Asarning janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlari.</p> <p>Sayfi Saroyi hayoti va ijodiy merosi. Sayfi Saroyi lrik shoir, dostonnavis va tarjimon; she'riyati, "Suhayl va Guldursun" dostoni, "Guliston bit-turkiy" asari. Ularga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.</p>			

4-mavzu. Durbek hayoti va ijodi.

Durbek va uning “Yusuf va Zulayho” dostoni. Dostonning yaratilishi, obrazlar tizimi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

5-mavzu. Haydar Xorazmiy hayoti va ijodi.

Haydar Xorazmiy hayoti va ijodiy merosi.”Gulshanul asror” va “Gul va Navro‘z” asaralari.

6-mavzu. Atoiy va Sakkokiy hayoti va ijodi.

Atoiy hayotiga doir ma'lumotlar. Atoiy she'riyati, g‘azallariga xos g‘oyaviy-badiiy xususiyatlar.

Sakkokiy – g‘azalnavis va qasidanavis shoir. G‘azal va qasidalarida badiiy mahorat masalasi.

7-mavzu. Lutfiy va Husayniy ijodi.

Lutfiy hayoti va ijodini o‘rganish manbalari. Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy.

Husayniy – turkigo‘y shoir. Navoiyning “Majolis un-nafois”ida Husayniy haqida. Navoiyning Husayniy devoniga doir fikrlari. Alisher Navoiy “Munojot”ida Husayniy shaxsining yoritilishi.

8-mavzu. Navoiy lirkasi.

Navoiy g‘azallari va qit’alari tahlili. Ularning mazmun-mohiyati, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Ruboiy va tuyuqlari tahlili.

9-mavzu. Navoiy - xamsanavis.

Buyuk “Xamsa”ning yaratilishi. Sharqda xamsachilik an’anasi. Navoiy “Xamsa”sining jahon adabiyotida tutgan o‘rni.

“Hayrat ul-abror” dostoni. Dostonning kompozitsion qurilishi, janr xususiyatlari. Uning axloqiy-ta’limiy, ma’rifiy-falsafiy doston sifatidagi ahamiyati.

“Farhod va Shirin” dostoni. Dostonning kompozitsion qurilishi., syujet yo‘nalishi. Dostonda komil inson muammosi.

10-mavzu. Navoiyning “Xamsa” asari tahlili.

“Layli va majnun” dostoni. Dostonning syujet yo‘nalishi va kompozitsion qurilishi. Dostonda ishq talqini.

“Sa’bai sayyor” dostoni. Bahrom shoh va oshiq. Shoh va darvesh hikmatining falsafiy yechimi. Doston hikoyalarining mushtarak jihatlari.

“Saddi Iskandariy” dostoni. Iskandar – Navoiy idealidagi adolatli hukmdor timsoli. Shoirning hikoyanavislik mahorati.

11-mavzu. Navoiy - dostonnavis. “Lison ut-tayr” – falsafiy-majoziy doston.

Dostonning kompozitsion qurilishi va janr xususiyatlari. Asosiy timsollar va ularning majoziylik xususiyatlari.

“Mahbub ul-qulub” – axloqiy-ta’limiy asar. Shoiring komil inson va mukammal jamiyat haqidagi orzulari ifodasi. Asarning kompozitsion qurilishi va janr xususiyatlari, badiiyati.

12-mavzu. Navoiy – adabiyotshunos. .

“Majolis-un nafois” – turkiy tilda yaratilgan birinchi tazkira. “Mezon ul-avzon”, “Mufradot” asarlari.

Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari. Filologiyaga oid asarlar. Tarixiy mavzuda bitilgan nasriy asarlar. Epistolyar mavzudagi hamda o‘z faoliyatiga oid asarlar. Zamondoshlari haqida bitilgan asarlar.

13-mavzu. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va adabiy faoliyati.

Bobur lirikasi. Shoir devonlari. Lirk merosining janr xususiyatlari, mavzu ko‘lami. Obrazlar dunyosi. Badiiy tasvir vositalari.

14-mavzu. “Boburnoma” asari tahlili.

“Boburnoma” tarixiy-adabiy memuar asar. Asarning kompozitsion qurilishi va janr xususiyatlari, badiiyati.

15-mavzu. Muhammad Solih va Xoja hayoti va ijodi.

“Shayboniynoma” – tarixiy doston. Shoir hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar. “Shayboniynoma” dostonida tarixiy haqiqatning badiiy in’ikosi.

Xoja hikoyalari. “Miftohul-adl” va “Gulzor” to‘plamlaridagi hikoyatlarning mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Davr adabiyoti haqida yakunlovchi xulosa.

III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pahlavon Mahmud ruboynavis.
2. Pahlavon Mahmud ruboylarining mavzular doirasi, timsollar tarkibi, g‘oyaviy-falsafiy, badiiy xususiyatlari va mazmun-mohiyati.
3. Rabg‘uziy va uning “Qissasi Rabg‘uziy” asari. Asardagi qissa va hikoyatlar, ularning mazmun-mohiyati, g‘oyaviy- badiiy xususiyatlari.
4. “Qissasi Rabg‘uziy” asarida qissa va boshqa adabiy janrlar.
5. Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun” asari.
6. “Yusuf va Zulayho” dostonida xalq og‘zaki ijodi.
7. Atoiy g‘azaliyoti.
8. O‘zbek adabiyotida Atoiy ijodining o‘rni.
9. Sakkokiy lirikasi.
10. Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror” asaridagi hikoyatlarning g‘oyasi, maqsadi.
11. Lutfiy lirikasi, janr xususiyatlari va mavzu ko‘lami.
12. Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari.
13. Bobur lirikasi. Boburning “Risolai aruz”, “Voldiyya” va “Mubayyin” asarlarining adabiy qiymati.

14. Husayniy devonlari.

15. Xoja hikoyalari. "Miftohul adl" va "Gulzor" to'plamlaridan hikoyatlarning mavzu ko'lami, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Qissasi Rabg'uziy" dagi hikmatlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
2. "Muhabbatnoma" ning tematik-g'oyaviy xususiyatlari.
3. Pahlavon Mahmud ruboilarining axloqiy-ta'lifi hamda falsafiy mohiyati.
4. Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida Yusuf obrazi.
5. Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida Zulayho obrazi.
6. Atoiy lirkasida hayot va sevgi mavzusi.
7. Sakkokiy-qasidanavis.
8. Lutfiy lirkasida yor va oshiq obrazlari.
9. Lutfiy lirkasida badiiy tasvir vositalari.
10. Lutfiy va Navoiy.
11. Alisher Navoiy ruboilarida axloq-odob masalalari in'ikosi.
12. Navoiy – xamsanavis.
13. "Hayrat ul-abror" dostonining ta'lifi-didaktik xususiyatlari.
14. "Farhod va Shirin" dostonida ilm va hunar haqida.
15. "Layli va Majnun" dostonida ilohiy ishq mohiyati.
16. "Sa'bai sayyor" dostoni hikoyatlarining qiyosiy o'rganish.
17. "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazi.
18. "Lison ut-tayr" – falsafiy-majoziy doston.
19. "Mahbub ul-qulub" axloqiy-ta'lifi asar.
20. Navoiy – adabiyotshunos.
21. "Mehr va Suhayl" hikoyasida bosh qahramon obrazi
22. Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari.
23. Bobur lirkasi.
24. Bobur ruboilarida g'urbat motivlari.
25. "Boburnoma"ning badiiy xususiyatlari.
26. "Boburnoma" da Movarounnahr shaharlarining badiiy tasviri.
27. "Boburnoma"ning o'zbek adabiyoti va madaniyatini o'rganishdagi

	<p>ahamiyati.</p> <p>28.“Boburnoma” da Hindiston tabiatining badiiy tasviri.</p> <p>29.Muhammad Solih hayoti va ijodi. “Shayboniynoma” – tarixiy doston.</p> <p>30.Xojaning san’atkorlik mahorati</p>
3.	<p style="text-align: center;">VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o’zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - O’zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyoti davomida so‘z san’ati takomili, estetik ta’sirini his etish, jumladan, adabiy-badiiy matn ustida ishlash, badiiy matnlarda qo’llaniladigan tasviriy vositalar, she’riy san’atlar yuzasidan bilimga ega bo’ladi. - Lug‘at ustida ishlay olish, eski o’zbek yozuvi, arab, fors tillaridan xabardor bo‘lish va muhim xulosalar yasay olish, o’zbek adabiyotining yuksak g‘oyaviy-badiiy va ilmiy-nazariy bilimlarini o’rganishi uchun talabalar quyidagi ko’nikmalarga ega bo’ladi: - o’zbek adabiyoti konsepsiyasining o’ziga xosligi; - o’zbek mumtoz adabiyotining ifoda usullari; - o’zbek adabiyoti namoyondalari ijodining yetakchi tamoyillari; - o’zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari; - o’zbek adabiyotining yetakchi xususiyatlarini aniqlash; - o’zbek adabiyotida jadidchilikning o’rnini belgilash; - o’zbek adabiyotining yetuk namoyondalar hayoti va ijodini tavsiflash; - o’zbek adabiyotining tarixiy-milliy, milliy-zamonaviy xususiyatlarini anglash; - har bir ijodkorning o’zbek adabiyotida tutgan o’rmini aniqlash. <p>Bu esa talabalarda o’zbek adabiyoti nafosatini teran his qila olish va tahlil etish malakasiga ega bo’lishlariga yordam beradi.</p>
4.	<p style="text-align: center;">VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyiham; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyiham
5.	<p style="text-align: center;">IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o’zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>

6.	<p style="text-align: center;">X. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. N.Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi T.: "Sano-standart"-2017 2. R.Vohidov, H.Eshonqulov O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi o'quv qo'llanma T.; "Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti – 2006 3. S.Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti. T.: "Yangi asr avlodi" 2004. 4. R.Orzibekov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T. "Fan", -2006. 5. B.Qosimov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T. - 2006. 6. H.Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. "Yangi nashr", 2010.
	<p style="text-align: center;">XI. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: "Sharq" 1990. 2. A.Qayumov. Tanlangan asarlar. 10 jildlik. T.: "Mumtoz so'z" 2015. 3. H.Qudratillayev. Boburning badiiy mahorati haqida. T.: "Sharq" 2005. 4. H.Boltaboyev, N.Rahmonov. mumtoz adabiyoti namunalari. 3-jild. T.: "O'zMU" 2002. 5. O.Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004. 6. E.Vohidov. She'r dunyosi. – T.: Sharq, 2001. 7. A.Oripov. Tanlangan asarlar. 4 tomlik. – T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2001. 8. U.Normatov. Nafosat gurunglari. – T.: Mumtoz so'z, 2011. 9. A.Rasulov. Badiiylik-bezavol yangilik. T.: Sharq , 2007. 10.N.Jabborov. Adabiyot va milliy ma'naviyat.-T.:Ma'naviyat,2015 11.S.Mirvaliyev.O'zbek adiblari.-Yozuvchi,2000. 12.U.Dolimov. Turkistonda jaded maktablari.-T.:Universitet,2006.
	Axborot manbalari
	<p>www.pedagog.uz www.cspl.uz www.edu.uz www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK) www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lif resurslari portal</p>
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil " _____" _____dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: N.Raxmonova - CHDPU, "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasи o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: N.Jabborov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori A.U.Muydinova - CHDPU, "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasи o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori